

FAXRIYOR SHE'RIYATIDA KLASSIK ADABIYOT AN'ANALARI BILAN DIALOGNI YUZAGA Keltiruvchi intermatnlar (remissensiya va alluziyalar)

Aptarova Mehriniso Amir qizi

Samarqand davlat universiteti 1- bosqich magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20926237>

Annotatsiya. Ushbu maqola Faxriyor she'riyatida klassik adabiyot an'analari bilan dialogni yuzaga keltiruvchi intermatnlar — remissensiya va alluziya hodisalarini tahlil qilishga bag'ishlanadi. Maqolada shoir ijodida mumtoz adabiyot namunalari bilan olib boriladigan matnlararo muloqot o'rganiladi, alluziya va remissensiyaning she'riy matnlardagi o'ziga xos ko'rinishlari tahlil etiladi. Faxriyorning Navoiy, Bedil, Rumi, Ahmad Yassaviy va boshqa allomalar ijodi bilan intermatnli aloqasi ilmiy asosda o'rganiladi. Shoir zamona ruhini klassik obrazlar, ramzlar va maqollar orqali ifodalashda qo'llagan san'at usullari ochib beriladi.

Kalit so'zlar: intermatn, alluziya, remissensiya, Faxriyor, klassik adabiyot, she'riyat, tasavvuf, dialogizm, intertekstuallik, mumtoz adabiyot.

ИНТЕРТЕКСТЫ, СОЗДАЮЩИЕ ДИАЛОГ С ТРАДИЦИЯМИ КЛАССИЧЕСКОЙ ЛИТЕРАТУРЫ В ПОЭЗИИ ФАХРИЁРА (РЕМИНИСЦЕНЦИИ И АЛЛЮЗИИ)

Аптарова Мехринисо Амир кизи

Магистрант 1-го курса Самаркандского государственного университета

Аннотация. Настоящая статья посвящена исследованию интертекстов в поэзии Фахриёра — реминисценций и аллюзий, создающих диалог с традициями классической литературы. В статье рассматривается интертекстуальный диалог поэта с образцами классической литературы, анализируются специфические проявления аллюзии и реминисценции в поэтических текстах. На научной основе исследуется интертекстуальная связь Фахриёра с творчеством Навои, Бедия, Руми, Ахмада Яссави и других мыслителей. Раскрываются художественные приёмы, которые поэт использовал для выражения духа времени через классические образы, символы и пословицы.

Ключевые слова: интертекст, аллюзия, реминисценция, Фахриёр, классическая литература, поэзия, суфизм, диалогизм, интертекстуальность, классическая литература.

INTERTEXTS CREATING DIALOGUE WITH CLASSICAL LITERARY TRADITIONS IN FAKHRIYOR'S POETRY (REMINISCENCES AND ALLUSIONS)

Aptarova Mehriniso Amir qizi

2nd year Master's student, Samarkand State University

Annotation. This article is devoted to the analysis of intertexts in Fakhriyor's poetry — reminiscences and allusions that create a dialogue with the traditions of classical literature. The article examines the intertextual dialogue of the poet with examples of classical literature and analyzes the specific manifestations of allusion and reminiscence in poetic texts. The intertextual connection of Fakhriyor with the works of Navoi, Bedil, Rumi, Ahmad Yassawi and other thinkers is studied on a scientific basis. The artistic techniques used by the poet to express the spirit of the era through classical images, symbols and proverbs are revealed.

Keywords: intertext, allusion, reminiscence, Fakhriyor, classical literature, poetry, sufism, dialogism, intertextuality, classical poetry.

Kirish

Faxriyor she'riyatining o'ziga xos xususiyatlaridan biri uning o'zak qismining mumtoz adabiyot namunalari bilan o'zaro muloqoti hisoblanadi. Bu muloqot shunchaki an'anaga ergashish emas, balki o'tmish matnlarini zamonaviy tafakkur prizmasidan o'tkazib, ularga yangi hayot bag'ishlashdir. [1] Shoir klassik adabiyotga xos bo'lgan timsollar, tushunchalar va ohanglarni remissensiya va alluziya shaklida o'z matniga singdirib yuboradi. Bu o'rinda intermatnning remissensiya va alluziya kabi unsurlari katta o'rin tutadi.

Alluziya — shoir matnida ma'lum bir o'zidan oldin yaratilgan matn, kino, drama, tarixiy voqealarda uchraydigan tarixiy shaxs, adabiy qahramon yoki mashhur asarga ishora qilish orqali o'quvchi xotirasida keng ko'lamli tasavvur uyg'otishdir. [2] Allyuziya — bu biror narsaga haqida ataylab yoki tasodifiy qilingan havola; uning to'g'ridan-to'g'ri yoki shama orqali yuzaki eslatib o'tilishidir. Bu shuni anglatadiki, allyuziya ham majburiy, ham tasodifiy intertekstuallik bilan chambarchas bog'liq, chunki qilingan "ishora" tinglovchi yoki tomoshabinning asl manbadan xabardorligiga tayanadi.

Remissensiya esa muayyan bir klassik asarning ohangi, uslubi yoki alohida jumllalarining yangi matnda bilvosita aks etishidir. [3] Faxriyor ushbu vositalar yordamida Navoiy, Bedil, Rumi kabi mutafakkirlar dunyosi bilan intellektual muloqotga kirishadi va o'quvchini ham ushbu muloqotga chorlaydi. Bunda o'quvchidan adabiy va falsafiy bilim talab etiladi.

Asosiy qism

Shoir ijodida uchraydigan remissensiya va alluziya hodisalarini tahlil qilish jarayonida birinchi navbatda "Hayot, sen sharobsan..." deb boshlanuvchi she'rga murojaat etamiz:

Hayot, sen sharobsan, maysan bir so'zim,
Yigirma to'rt yilki, to'ymadim, ayo.
Yurar may ichinda hasratlar suzib,
Soqiyo, aysh qayon, uqubat qayon?

Ushbu she'rdan olingan bayt shoirning klassik adabiyot an'analari bilan olib borayotgan dialogning yorqin namunasi. She'rning dastlabki satrlaridanoq biz mumtoz adabiyotga xos bo'lgan "sharob", "may" va "soqiy" timsollariga duch kelamiz. [4] Biroq Faxriyor bu timsollarni an'anaviy ma'noda (ishqiy mayxo'rlik yoki tasavvufiy vajd) emas, balki hayotning o'zini ifodalovchi falsafiy metafora sifatida qo'llaydi. She'rda "soqiy"ga murojaat qilish orqali taqdir va falakning azaliy ziddiyatlariga ishora qilinadi. "Aysh" (huzur-halovat) va "uqubat" (azob) tushunchalarining yonma-yon qo'yilishi klassik adabiyotdagi dunyo va inson munosabatiga ishoradir. [5] Bu yerda mumtoz "soqiy-boda" munosabatining ohangi saqlanib qolgan, lekin mazmun zamonaviylashgan.

Taxir bir sharobsan, o, shirin hayot,
Sabrim kosasiga seni quyarman,
Icharman ko'zyoshni ichganim kabi.
Toting unutmagay yodim umrboq,
Seni quyar jomim, nimkosam sabr.
Men unga ayolning ismin o'qarman.

Xalqimizda "Kosa tagida nimkosa bor" degan maqol bor. Bu maqol odatda biror ishning tagida yashirin ma'no, sirlilik yoki kutilmagan jihat borligini anglatadi. [6] Faxriyor esa bu xalq

donishmandligini o'ziga xos tarzda "o'zgartirib", uni ruhiy dunyoga, sabr tushunchasiga bog'laydi. Maqoldagi "nimkosa" shoir talqinida endi shubha yoki sir emas, balki insoniy bardoshning o'lchoviga aylanadi: "Seni quyar jomim, nimkosam sabr". Bu yerda shoir hayot (sharob)ni to'la jomga emas, balki kichikroq, ammo mustahkam "nimkosa"ga — sabrga quyayotganini aytadi.

Yurak uzlatnishin Yassaviy kabi

Yolg'onchi dunyoni kechirib yashar.

Ushbu parchada tasavvuf adabiyotining yirik namoyandasi Xoja Ahmad Yassaviy hayot tarziga ishora qilingan bo'lib ham alluziya, ham remissensiya unsurlari uchraydi. [7] "Yurak uzlatnishin Yassaviy kabi" misrasida Ahmad Yassaviyning 63 yoshga kirganda yer ostiga (chillaxona/uzlatga) kirib, umrining qolgan qismini toat-ibodatda o'tkazgani — uzlat hodisasiga ishora qilinmoqda. Yassaviy butun dunyo yomonliklaridan, riyo va nafsdan yuz o'girishi nafaqat jismoniy balki ruhiy holatda kechadi. Shoir bu tarixiy fakti intermatn sifatida olib, uni jismoniy harakatdan ruhiy holatga, ya'ni "yurak uzlati" darajasiga ko'chiradi.

Yassaviy "Hikmatlar"ida dunyodan kechish, ruhiy poklanish, nafsni jilovlash kabi g'oyalar ustuvorlik qiladi. "Yolg'onchi dunyo" tushunchasi Yassaviy "Hikmatlar"ining bosh g'oyasi hisoblanadi. [8] Faxriyorda ushbu birikmaning qo'llanilishi o'quvchida bevosita hikmatlar matni bilan muloqotni (remissensiyaning) uyg'otadi. Biroq shoir bu yerda yangi bir estetik yechim taklif qiladi: Yassaviy dunyodan uzlat orqali kechgan bo'lsa, lirik qahramon uni "kechirib yashash" orqali ma'naviy yuksaklikka erishadi.

Manqalda xotira pishirar Zardusht,

bolasining miyasini chaqib...

"nabiylar — farzandkush, ummat — padarkush"

xotira ochligi qiladi ta'qib.

She'ring dramatik va falsafiy kulminatsiyasi bo'lgan bandda shoir insoniyat tarixidagi eng qadimgi e'tiqodlar va eng og'ir ijtimoiy-psixologik fojialarni intermatnli sintez qiladi. Zardusht — olovga sig'inish va poklik ramzi. [9] Ammo bu yerda u o'z bolasining miyasini (tafakkurini) manqalda pishirmoqda. Buning ma'nosi shundaki, o'tmishning (xotiraning) kelajakni "yeb bitirishi" ramzidir. Biz o'z tariximiz, xotiramiz va ajdodlarimiz bilan faxrlanish yo'lida yangi avlodning tafakkurini, ularning o'ziga xosligini qurbon qilayotganimizga ishora.

"nabiylar — farzandkush, ummat — padarkush" ibora sida, shubhasiz, o'zbek madaniy va tarixiy xotirasidagi ikki ulkan "matn"ga — Behbudiyning "Padarkush" dramasi va Mirzo Ulug'bek hamda Abdullatif fojiasiga to'g'ridan-to'g'ri intermatnli ishoradir. [10] O'zbek xalqi uchun "padarkush" deganda, birinchi navbatda, toj-u taxt ilinjida otasi Mirzo Ulug'bekning qonini to'kkan Abdullatif gavdalanadi. Matndagi "ummat — padarkush" birikmasi shuni anglatadiki, bu nafaqat bir shaxsning qilmishi, balki butun bir jamiyatning o'z ma'naviy otalarini, buyuk mutafakkirlarini qurbon qilishga tayyorligidir.

Yana biri ishora Behbudiyning "Padarkush" dramasi qilingan. (11) Dramada o'g'il (Toshmurod) jaholat qurboni bo'lib, o'z otasini o'ldiradi. Faxriyor bu dramaga ishora qilgan ekan, "padarkushlik"ni jadidlar davridagi kabi jaholat mahsuli deb baholaydi. Agar Behbudiyda o'g'il o'qimaganligi (jaholati) sababli padarkush bo'lsa, Faxriyor she'rida ummat o'zining "xotira ochligi"ni qondirish uchun o'tmishini (otasini) inkor etadi.

Faxriyor ushbu alluziyalar orqali shuni aytmoqchiki, bizning tariximiz — bu bir-birini inkor etuvchi qurbonliklar silsilasi. Abdullatifning padarkushligi yoki Behbudiyning dramasi

fojia bugungi kunda ham ma'naviy shaklda davom etmoqda. Biz hamon o'z ma'naviy ildizlarimizni (otalarimizni) qadrlamaymiz.

Oyni etak bilan yopishni bizga
maqol emas, shior o'rgatar
Demak, maqol emas, shior kengaytar
imkoniyat imkoniyatin.

Xalqimizda "Oyni etak bilan yopib bo'lmas" degan maqol bor, bu — haqiqatni yashirishning iloji yo'qligini anglatadi. Biroq Faxriyor bu matnni "buzadi": bizga buni maqol emas, "shior o'rgatadi". [11] Bu yerda shoir SSSR davri va mustabid tuzumlar mafkurasiga ishora qilmoqda. Siyosiy shiorlar xalqning ko'zini ko'r qilib, haqiqatni (Oyni) yolg'on (etak) bilan yopishga urinishini fosh etadi.

Dahoga talpinma, dahodan talpin,
Ma'nisin unutm qadim oyatning.

"Suluk" she'ri (1989) o'z nomi bilan oq tasavvufiy adabiyotga — Yassaviy, Navoiy, Bedil an'analariga ishora qiladi. Suluk — tasavvufda ruhiy kamolot yo'li. [12] Shoir ushbu she'rda "Dahoga talpinma, dahodan talpin, Ma'nisin unutm qadim oyatning" deb yozar ekan, "qadim oyat" iborasi orqali muqaddas matn bilan bog'lanadi. Ammo shoir bu satrni diniy ko'rsatma sifatida keltirmaydi — u "daholar — jodugar, g'oyalar — folbin" deb qo'shib qo'yadi. Bu yerda tasavvufiy poetikaning asosiy tushunchasi — kamolot yo'li — zamonaviy g'oyaparast dunyoning tanqidi bilan uyg'unlashadi.

Xulosa

Faxriyor she'riyatida intermatnning remissensiya va alluziya shakllari o'ziga xos estetik vazifa bajaradi: ular o'z o'zida hozirgi zamon o'rtasidagi ko'pri bo'lib xizmat qiladi, klassik adabiyotning buyuk an'analarini zamonaviy poetik tafakkur bilan uyg'unlashtiradi. [13] Shoir Navoiy, Yassaviy, Bedil, Rumi kabi mumtoz adabiyot namoyandalarining obrazlari, ramzlari va g'oyalarini o'z she'rlariga singdirib, ularga yangi ma'no va hayot bag'ishlaydi. Intermatnli mulohaza Faxriyor ijodini g'oyaviy, falsafiy va badiiy jihatdan boyitib, uni jahon adabiyoti kontekstida o'ziga xos maqomga ko'taradi. Bu tadqiqot o'zbek zamonaviy she'riyatida intertekstuallik hodisasini o'rganishda muhim hissa qo'shadi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Kristeva Yu. Izbrannye trudy: Razrushenie poetiki. — M.: ROSSPEN, 2004. — S. 165–175.
2. Bart R. Izbrannye raboty: Semiotika. Poetika. — M.: Progress, 1994. — S. 384–391.
3. Genett J. Palimpsest: literatura vo vtoroy stepeni. — M.: Izd-vo im. Sabashnikovoykh, 1997. — S. 7–48.
4. Faxriyor. Tanlangan asarlar. — T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2005. — B. 48–52.
5. Qodirov P. O'zbek she'riyatida an'ana va modernizm. — T.: Fan, 2010. — B. 118–130.
6. Baxtin M.M. Estetika slovesnogo tvorchestva. — M.: Iskusstvo, 1986. — S. 274–279.
7. Yassaviy A. Hikmatlar. — T.: Yulduzcha, 1991. — B. 12–25.
8. Ergashev B. O'zbek klassik she'riyatida tasavvuf ramzlari. — T.: O'zbekiston, 2015. — B. 76–84.
9. Inomov N. Zardusht va Sharq ma'naviyati. — T.: Fan, 2008. — B. 34–40.
10. Behbudiy M. Padarkush. — T.: Ma'naviyat, 2001. — B. 3–45.

11. Karimov N. XX asr o'zbek adabiyoti tarixi. — T.: Fan, 1999. — B. 220–234.
12. Yo'ldoshev Q. Tasavvuf va adabiyot. — T.: Yangi asr avlodi, 2006. — B. 95–110.
13. Mirzayev I. Zamonaviy o'zbek she'riyatida intertekstuallik. — Samarqand: SamDU nashriyoti, 2019. — B. 55–68.